



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

7	Nasiba SIDIKOVA, Sevinch G‘AFFOROVA, “Malika ayyor” dostoni variantlarida hasanxon obrazi tahlili	400
8	Nargiza UMURZAQOVA, Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida Imom G‘azzoliy hikmatlarining o‘rni	405
9	Nurjahon RAHMONBERDIYEVA, Muhammad Alining “Avliyoning bashorati” dostonida tarix haqiqati va badiiyati	408
10	Mohinabonu RAHMATOVA, Nurota dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi	412
11	Sanobar TURSUNOVA, Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida diniy motivlar	414
12	Lobar AVAZOVA, Komiljon Imomov- o‘zbek xalq ertaklari tadqiqotchisi	417
13	Ozoda RAJABBOYEVA, “Xuastuanift” asarida qadimgi mifologik dunyoqarashning aks ettirilishi	421

5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

1.	Matluba JABBOROVA, O‘zbek folkloridagi ayollar obrazining mumtoz adabiyotdagi transformatsiyasi	425
2.	G‘ayratbek XOLBUTAYEV, Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya	428
3.	Abdukamol ABDUJALILOV, Sehrli ertaklarda motiv va obraz munosabati	433
4.	Ma‘mura RAMATOVA, Shimoliy Xorazmdagi ayrim tarixiy godonimlarini qiyosiy tahlil qilish	437
5.	Gulruh RAVSHANOVA, Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida poetik psixologizm	441
6.	Feruza TURDIMOVA, Muzayyana Alaviya adabiy merosida xalq og‘zaki ijodi va badiiyat uyg‘unligi	445
7.	Saodat JO‘RAYEVA, Bolalar folklori janrlarining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari	448
8.	Aziza SAYDULLAYEVA, O‘zbek-turk xalq sehrli ertaklarida soch obrazining mifopoetik talqini	451
9.	Huriniso XAYRULLAYEVA, “Qisasi Rabg‘uziy”da mavjud she‘riy parchalar badiiyatida folklor elementlarining ifodalanishi	454
10.	Sadoqat KAMOLOVA, “Masxara” obrazining badiiy-tarixiy funksiyasi (xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida)	456
11.	Shohzoda TURSUNBOYEVA, Mifologik va fantastik tafakkurda “barhayotlik” muammosining namoyon bo‘lishi	459
12.	Dilafruz MAHKAMOVA, “Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va turkiy qahramon xarakteri	463
13.	Nilufar DEHQONOVA, “Devonu lug‘otit-turk”dagi mifologik obrazlar va ularning folkloriy transformatsiyasi	468

MUHAMMAD YUSUFNING “QORA QUYOSH” DOSTONIDA POETIK PSIXOLOGIZM

POETIC PSYCHOLOGISM IN MUHAMMAD YUSUF'S EPIC POEM «BLACK SUN»

Gulruh RAVSHANOVA,

Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/ZOEV2131

Annotation. *This article discusses the influence of the folklore genre of the epic on public education, the creators who continued the epic tradition in Uzbek literature, and the poetic psychologism and interpretation of the tragedy of the era in Muhammad Yusuf's epic «Black Sun».*

Key words. *Black Sun, epic, suffering, emotion, old cloak, history, dumb old woman.*

O'tmish, hozir va kelajak haqida o'ylash uni baholash insoniyatning ma'naviy ehtiyojlaridan biridir. O'tgan davrni o'rganmay turib, bugunning qadriga yetish malol keladi, shunday emasmi? Shuningdek, bugunning asosiy nuqtani aniqlamasdan turib, ertangi manzillarga yetmoq ham mushkulroq. Bu qonuniyat badiiy adabiyot uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Badiiy adabiyotning asl maqsadi yosh avlodni ma'naviyatli qilish va ularni ota-bobolarimiz qoldirgan qadriyatlarga sodiq farzand bo'lishdek oliy tushunchalarni anglatishdan iborat. Bu qadriyatlarni singdirish va shaxs tarbiyasida ba'zi o'zgarishlarga erishish bobida dostonlarning alohida o'rni mavjud. Shu jihatdan qaralganda, xalq og'zaki ijodi – asrlar davomida sayqal topgan milliy ma'naviyat manbai sifatida – o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda beqiyos tarbiyaviy vositadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PQ–81-son qarorida ta'limda milliy qadriyatlarni uyg'unlash-tirish orqali yoshlarning tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish vazifasi belgilab qo'yilgan. Xalq og'zaki ijodi namu-nalari – ertaklar, maqollar, dostonlar va afsonalar – ushbu maqsadga erishishda katta salohiyatga ega. Xalq og'zaki ijodi qadimdan yoshlar ongiga axloqiy me'yorlar, ijtimoiy fazilatlar va milliy g'ururni singdiruvchi qudratli vosita bo'lib kelgan [3,5].

Agar adabiyot inson ruhiyatini tarbiyalash va ijtimoiy ongni shakllantirish vazifasini bajaruvchi fan sifatida qaralsa, shaxs tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiladigan dostonchilik an'anasi o'zbek adabiyotida keng ko'lamga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Hamid Olimjon ijodida “Zaynab va Omon”, “Semurg” kabi asarlar, Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonida tarixiy va falsafiy mavzularning badiiy talqini, Abdulla Oripovning “Jannatga yo'l” dostoni, Faxriyorning “Ayolg'u”, “Geometrik bahor”, “Muchal yoshi” kabi poetik izlanishlari bu an'ananing davomiyligini ko'rsatadi. Muhammad Yusuf ijodida esa “Ey dil”, “Qora quyosh”, “Osmonning oxiri”, “Ko'hna quduq”, “Temirlar nidosi” singari dostonlar mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'zbek adabiyotida epik janrning badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytirgan asarlar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tatqiqotimizda shoir va yozuvchi, tarjimon va zamonaviy ma'rifatparvar ijodkorimiz, Muhammad Yusufning psixologizm va ijtimoiy ruhda yozilgan “Qora quyosh” dostoni haqida biroz mushohada qilamiz.

Shoirning she'riy merosi, xususan, dostonlari, o'zbek xalqining tarixiy xotirasi, ruhiy iztiroblari va umidlarini ifodalashga xizmat qiladi. Ayniqsa, “Qora quyosh” dostoni shoirning ichki dunyosi bilan xalqning umumiy ruhiy manzarasini uyg'unlashtirishga xizmat qilgan eng mukammal asarlaridan biri sifatida baholanadi. “Qora quyosh”da lirik qahramon individual qayg'u va iztirobni emas balki, xalqning umumiy ruhiy holatini poetik obrazlar bilan uyg'unlashtirib beradi. Obrazlar ruhiyatini ochib berishda shoirning asosiy ustunligi shundaki, u murakkab falsafiy holatlarni ham sodda va xalq tilida ifodalashga intiladi. Shu bois, “Qora quyosh” dostoni tatqiqotchilar uchun faqat poetik manbagina emas, balki adabiy-falsafiy va tarixiy manba sifatida ham ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Shoir mazkur asari orqali inson va uning ruhiy holati, ichki kechinmalarini bevosita yoki bilvosita qalamga oladi va badiiy so‘z orqali hayotiy lavhalarda chizadi. Hayotiylik, Muhammad Yusuf she‘riyatining muhim xususiyati hisoblanadi. Hayotda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarga teran nigoh bilan qarashga, ularning tub mohiyatini anglashga intiladi. “Yozuvchi badiiy talantining o‘lchovi” (Ch.Aytmatov) bo‘lgan badiiy mahorat shoirning o‘zida millatning ruhini ifodalagan har bir satrida yaqqol namoyon bo‘ladi. Dostonning umumiy manzarasi qat’iy syujet chizig‘iga emas, balki **lirik-falsafiy mushohada shakliga asoslanganligi** bilan doston turkumidagi boshqa asarlardan ajralib turadi. Shoir voqealar syujitini to‘liq va izchi tarzda hikoya qilib bermaydi, balki uni **lirik monolog, ichki mushohada, ramziy va real timsollar** orqali ifodalaydi. Mazkur dostondagi **badiiy timsollar** shoirning she‘riyatidagi an’anaviy tasvirlardan tamomila farq qiladi. Eng avvalo, asarda markaziy **ramz sifatida qoraygan quyosh** ilgari suriladi. Ushbu **poetik ramz** millatning ma’naviy holatini, lirik qahramonning ichki zulmatini va ruhiy iztiroblarini badiiy-estetik ma’noda aks ettiradi. Dostonning deyarli har bir sahifasi ruhiy tushkunlik, iztirob tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilgan. Bu iztirob shoirning shaxsiy qayg‘usi sifatida emas balki, butun millatning og‘rig‘i sifatida talqin qilinadi. Shoir asarda bu **markaziy ramzni** bir necha bor qayta-qayta takrorlab, o‘quvchini ruhiy tushkunlik manzarasiga yetaklaydi. Biroq, doston faqat qorong‘ilik tasviri bilan cheklanmaydi – unda umid va ishonch mativi ham mavjud. Badiiy adabiyot ilmida quyosh – yashash, hayot, iliqlik, quvvat manbai. Uning qorayishi – yashash umidining so‘nishini anglatadi.

Asarda faqat tashqi manzaralar emas balki, qalbning eng ichki kechinmalari yolg‘izlik, ma’naviy zulmat, jamiyatning og‘ir holatlari ham tasvirlanadi. “Qora Quyosh”ning qorayishi-ko‘ngil quyoshining qorayishi, umid nurining so‘nishi, jamiyatning tarixiy jarohatlaridan qolgan ma’naviy iztirob belgisi sifatida talqin qilinadi. Shoir shaxsiy kechinmalarini xalqning umumiy iztirobi bilan uyg‘unlashtirar ekan, asarlarining aksar qismida umid mativiga alohida urg‘u berib o‘tadi. Dostonning eng qorong‘i manzaralarida ham shoir umid ipini uzmaslikka qaror beradi.

“Qora Quyosh” dostonida o‘tmish izlari, ajdodlar xotirasi bilan birga tarixiy motiv va ruhiyatning uyg‘unligi o‘ziga xos ifoda etiladi. Ko‘plab tarixiy obrazlarga, ularning mash‘um taqdiriga murojaat qilib, individual ruhiyatini millat xotirasi bilan bog‘laydi. Bu jihat asarni faqat poetik-falsafiy manba emas, xalqning tarixiy xotirasini uyg‘otuvchi badiiy dalil sifatida ham qadrlash imkonini beradi.

Oddiy va xalqonalik, tiniq tilda chuqur mazmunni yetkazish shoirning asosiy kuchi hisoblanadi. Dostonning ko‘plab qismi ham shunday, umumxalq tili ohangida ortiqcha soxta badiiy bezaklarsiz, xotirotlarda saqlangan maktublarga asoslanilgan holda yozilgan. Yozuvchi umumxalq tilidan foydalanar ekan, umumodatlangan me’yordan og‘adi ya’ni, til unsurlarini odatdagidan o‘zga shakl, ma’no, tartib, munosabatlarda qo‘llaydi va shu “og‘ish”dan ma’lum badiiy-estetik maqsadni ko‘zda tutadi. Bu xil og‘ishlar tilning turli – fonetik, morfologik, leksik, semantik, sintaktik sathlarida kuzatilishi mumkin. Badiiy tasvir va ifoda vositalari ijodkorning muayyan badiiy-estetik maqsadiga erishish uchun umumodatlangan me’yordan qochishi natijasida yuzaga keladi. Ular tasvirning jonli va to‘laqonli bo‘lishiga, ifodaviylikning kuchayishiga xizmat qiladi. Ma’lumki, umumxalq tilidagi so‘zlar nominativ vazifani bajarish holatida ham tasviriylik va ifodaviylik imkoniyatlari jihatidan farqlanadi. Ya’ni, ijodkor ifoda va tasvirni so‘z ma’nosiga daxl qilmagan holda, mavjud so‘z xazinasidan “so‘z tanlash” hisobigagina kuchaytirishi mumkin bo‘ladi.

Kuzatishlarimiz davomida asarning ichki qatlamida yashiringan, shoirning tush shaklida yaralgan o‘kinch to‘la misralar e’tiborimizni tortdi. Dostonning bir qismi sifatida keltirilgan va Ahmad Yugnakiyning “Qisqagina umr ko‘rib, uzoq yashab kelayotgan zotlarga qarang...” degan epigrafi bilan belgilangan “Tushimga kiradi Qodiriy bobom” she‘riy parcha insonni chuqur iztirobli holatga soladi. Ushbu parcha shoir ruhiyatidagi iztirob va milliy xotira og‘riqlarini badiiy shaklda ifodalab, o‘quvchini ham ruhiy mushohadaga chorlaydi.

Tushimga kiradi Qodiriy bobom,
Bemador, bemajol, behol, beorom.

Egniga eski bir to'n kiyib olgan,

Shineldir balki u, kimdandir qolgan. Muhammad Yusuf "Ulug'imsan, Vatanim", " [1, 153]

Ijodkor qalbida Qodiriyga nisbatan chuqur iztirobi borki, bu iztirob shoirni tushlarida ham bezovta qilaveradi. Uning bemajol, horg'in yuzlari, shoirni haqiqatdan ham behol qiladi. Egnidagi eski to'ni sovuq o'lkalarda maxbuslar kiyadigan shinelga o'xshatilayotgani u to'n ham qayerdandir kelgan, sovuqqotganidan yelkasiga ilingandek ko'rinadi go'yo, shu to'n egnida poxol ham borday, adibning yuzlari esa oqargan qorday, charaqlab turgan ko'zlari mungli ekanligini ko'rganday boshiga tushgan tashvishdan haligacha horg'inligini his qilayotgan shoir, hislarini she'r bandlariga mahorat ila hech qanday o'xshatish va sitatalarsiz keltiradi. Kitobxon bevosita bu tasvirlarni, xuddi jonli, tomosha qilayotgandek, tarixning o'sha mash'um kunlarini ko'z oldida gavdalantirib, hissiyotlarga beriladi.

Muhammad Yusuf betakror, serqirra ijodkor, Abdulla Qodiriy shaxsiyatiga bot-bot murojaati bejiz emas. Avvalo dunyoqarashi olamni badiiy-estetik jihatdan boshqalardan farqliroq, chiroyliroq ko'ra oladigan shaxslar, hayotda yaxshilik va yomonlik bobida ba'zi chambarchas, mushtarak jihatlar ham mavjud ekanligini tushunadi va asarlarida qisman ko'rsatib beradi.

Muhammad Yusufning Ahmad Yuknakiyning "Qisqagina umr ko'rib, uzoq yashab kelayotgan zotlarga qarang..."-degan fikriga yana bir bor to'xtalsak. Biz yuqorida ijodkorning ayni ijod olami gurkiragan davrlarida yaratgan asarlarida qisqa umr ko'rgan ammo hamon yashab kelayotgan shaxslar siymosi ko'proq ekanini kuzatdik. Buni qarangki, bugun oramizda yo'q ammo hamon yashab kelayotganlar qatorida Muhammad Yusufning ham ismi qayd etilmoqda. Shoir bir necha yillar davomida ko'rgan tushidan uyg'onib, shu satrlarla she'rini boshlar ekan, o'zining ham umri qisqa ammo uzoq yashab kelayotgan zotlar qatoriga kirishini anglaganmikin? Bunisi bizga qorong'u, albatta. Shunisi aniqki, oramizda yo'q bo'lsa ham uzoq yillar mobaynida qalbimizning tub-tubida saqlanadigan unitilmas xotiralarimiz orasida barcha tarix yaratib ketganlar siyrati abadiy saqlanib qolaveradi.

Tushimga kiradi Abdullo bobom,

Oh oltin bobom-a, voh tillo bobom.

Qaro yer bag'rida qon yig'lab qolgan,

Akmal ikrom bobom, Fayzullo bobom! [1, 153]

XIX asrning avvalida millatni yorug' kunlar tomon yetaklashni burchi va maqsadi bilib yashagan, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Fayzullo bobo singari ma'rifatparvarlarning taqdiri og'ir bo'lsa-da, ular o'z maqsadlari yo'lida sobit qadam bo'lib qolishga muvaffaq bo'ldilar. Ularning yaratgan asarlari va tarixiy merosi ko'p yillar davomida kitobxonlar qo'lga yetib bormay, uy tomlarida, somonxonalarda, yerto'lalar va pana joylarda yo'q qilinib, yashirib saqlangan. Bu meros o'z davrida emas, balki zamona yangilangan bir davrda qadr topgani ayanchli bo'lsa-da, xalqimiz qalbining tub-tubida azaliy orzularining ro'yobga chiqqani, bobolarimizning armonlari ushlangani haqidagi umid uchqunlari bilan taskin topamiz. Shu bilan birga, tarix yashirgan ayrim hikoyalar hanuzgacha to'liq ochilmaganligi sababli, javobsiz qolayotgan savollar qalbimizni tirnaydi. Aslida bu savollar doirasi juda keng bo'lib, ularning mukammal javobini kimdan va qayerdan topish mumkinligi hali-hanuz ilmiy izlanishlar uchun ochiq masala bo'lib qolmoqda. Shoir aytganidek, so'rashimiz mumkin bo'lgan yagona guvoh-tarix. Tarix esa, o'z dardini aytolmay ketgan -"Soqov kampir" edi.

Mana,

Qodiriyini qilishar so'roq:

"O'tgan kun" degan she'r siznikimi?

-Ha.

Ammo u she'r emas...

-Jim bo'ling, axir!

She'rmi yo boshqami, avtori siz-da.

Tamom.

Boshqa gapga qolmaydi hojat.

Tergovchi- “payg ‘ambar”,

Tergovchi- “xudo”.

Temir zotdan kelgan buyruq-ijozat,

O‘zbek yana bitta o‘g‘lidan judo. [o‘sha kitob, 154]

Inson shaxsiyatiga hurmatsizlarcha munosabatda bo‘lish, ilmsiz va manqurt, qalbida insoniylik tuyg‘ularidan zarracha ham bo‘lmagan kimsalarga xos xususiyat. Mazkur misralar zimnidagi so‘roq ana shu xususiyatga ega insonlar yuzini kitobxonlarga yaxshiroq ko‘rsatib bergan. So‘roqqa tutayotgan tergovchi- “payg ‘ambar”, tergovchi- “xudo” deb ko‘rilayotgan asli xudobexabarlar vatanparvarlik va insoniylik tuyg‘usi nima ekanligini qayerdan ham bilishsin. Shoir bu tergov jarayonini beozor qalbi bilan his qilar ekan, mazkur misralarini bitguncha qancha qalam va qog‘oz qoralagan bo‘lsa...

Manfur kimsalar qoldirgan tarix bo‘y-bastini yana-da dardliroq, ayanchliroq tasvirlar ekan, qayinlar orasiga bekafan, daraxtdan to‘kilgan bodom singari bepayon maydonga beqabr ko‘milganlar orasida, beqasam choponiga o‘ralgan holda, umrini, xalqining yorug‘ kelajagi uchun baxshiyda qilgan shoir, dramaturg, nosir, tarjimon, maorif a‘zosi, yurtning ma‘naviyat chirog‘i- Cho‘lponning ayanchli o‘lim tasviri bilan yakun yasaydi.

Rutubatli Shimol o‘rmonlarida

Qayinlar xo‘ngrab quyoshni uyg‘otar.

Qarang, Cho‘lponingiz so‘ngi makonida

Beqasam choponin yopinib yotar [o‘sha kitob, 167]

Afsuski, bu qora qabrda Cho‘lpon bilan birga Akmallar, Qodiriylar, Shokirlar, Fayzullolar, Ahmad kabi xudo rahmat qilguvchi, o‘zbekning baxodirlari ham bor edi. O‘z nomi bilan bu sovuq o‘lka, XIX asr oxiri, XX asr boshlaridagi mash‘um kunlari orqali o‘zbekistonning tarix sahifalaridan sovuq tarix nomi bilan joy olgan. Bu davrda insonlarni “tilsizlashtirish” ishlari olib borilganda o‘z zaboni o‘laroq haqsizliklarga bardosh berolmay haqiqatni talab qilganlarni, sibir o‘rmonlari va zabonsiz qayinlar makoniga shavqatsizlarcha ko‘mishib, butun o‘zbek millati oyog‘iga bolta urishadi...

Fikrimiz so‘ngida shuni aytishimiz kerakki, Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostoni xalqning ruhiy iztiroblarini, tarixiy jarohatlarini va umidlarini badiiy obrazlar orqali ifodalagan asar sifatida o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin tutadi.

Ustoz Umarali Normatov aytganlaridek, “She‘riyatning onasi qo‘shiq bo‘lsa ajab emas. Inson zoti dil rozini, quvonch-u armonini, dardi dunyosini ilk bor ayni qo‘shiq shaklida izhor etganiga ishonging keladi. Qo‘shiq tabarruk zot- onaning dard chekib tuqqan to‘ng‘ich farzandi kabi azizdir” [4, 136]. Muhammad Yusuf yaratib ketgan farzandidek aziz bo‘lgan noyob asarlari bugun shoir nomiga rahmat va himmat keltirayotgani haqiqat. Shoirning dostonlari ham she‘rlari kabi xalqning turmush tarzidan, baxtiyor va og‘ir davrlaridan sado berguvchi qo‘shiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мухаммад Юсуф. Улуғимсан, ватаним. – Т., Ўзбекистон, 2012.
2. “Muhammad Yusuf ijodining barkamol avlod tarbiyasidagi ahamiyati va o‘qitish metodikasi” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari // Samarqand 2014 6-iyun
3. Maktabgacha va maktab ta‘limi jurnali. 2026-yil 1-son, yanvar, 5-bet
4. Normatov Umarali. Ijod sehri. Sharq nashriyoti. – Т., 2017. 136 b.